

## BI FEYYU ROMANLARIDA SONLAR BADIYATI VA TARJIMASI MUAMMOLARI (“Oy operasi” qissalari turkumining rus tilidagi tarjimasi asosida)

**U Ayjun**

Dotsent

Shanxay chet tillari universiteti

Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti

Shanxay – Pekin, Xitoy

**Suyu Tinsyu**

Shanxay tashqi ishlar idorasi xodimi

Shanxay, Xitoy

## МАСТЕРСТВО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ БИ ФЭЙ-ЮЯ И ПРОБЛЕМЫ ИХ ПЕРЕВОДА (на основе перевода на русский язык сборника повестей «Лунная опера»)

**У Айджун**

Доцент

Шанхайский университет иностранных языков

Институт России, Восточной Европы и Центральной Азии

Шанхай — Пекин, Китай

**Сюй Тинсю**

Сотрудник Шанхайского офиса иностранных дел

Шанхай, Китай

## TRANSLATION PROBLEMS OF NUMBERS IN THE NOVELS OF BI FEI-YU (based on the Russian translation of the collection of novels "The Moon Opera")

**U Aijun**

Associate Professor

Shanghai University of Foreign Languages

Institute of Russia, Eastern Europe and Central Asia

Shanghai – Beijing, China

**Xu Tingxiu**

Employee of the Shanghai Office of Foreign Affairs

Shanghai, China

UDC (УО'К, УДК): 821.581: 81'255.4

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для  
цитирования):**

U Ayjun, Suyu Tinsyu. Bi Feyyu romanlarida sonlar badiyati va tarjimasi muammolari (“Oy operasi” romanlari to’plamining rus tiliga tarjimasi asosida) // O’zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 3 (50). — B. 99-118.

**Annotatsiya.** Bi Feyyu xitoy adabiyotiga 60-yillardan keyin kirib kelgan va xitoy badiiy so‘z san’ati ustunlaridan biri sanaladi. Bi Feyyuning asarlari xorijiy tillarga bir necha bor tarjima qilingan. “Oy operasi” romanlar to’plami rus tiliga ham tarjima qilingan. Uning asarlarida sanoq sonlarning qo’llanishi bilan bog’liq o‘ziga xoslik kuzatiladi. Bi Feyyu romanlarining xitoy tilidan rus tiliga tarjima qilish jarayonida ma’lum bir muammolarga, til to’siqlarga duch kelingan. Bu birinchi galda xitoy va rus xalqlari orasidagi madaniy tafovut, tarjima jarayonining turli tarixiy foni, shuningdek, matn tili bilan bog’liq bo’lib, ba’zan sanoq sonlarning tarjimasida ham kuzatiladi. Ushbu

<https://doi.org/10.36078/1687763264>

**Received:** April 11, 2023

**Accepted:** June 17, 2023

**Published:** June 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

maqolani yozishda “Oy operasi” romanlar to‘plamining ruscha tarjimasidan foydalanildi, tahlil uchun aniq tarjima namunalari tanlandi, tarjimada yo‘l qo‘yilgan xatoliklar, til to‘siqlari va raqamlar bilan bog‘liq noto‘g‘ri tarjimalar umumlashtirildi. Raqamlar bilan xatoliklarni uch turga bo‘lish mumkin: referent raqamlar, referentsiz raqamlar (pragmatik funksiya) va tarkibida son bo‘lgan idiomalar. Ijtimoiy-semiotikaga asoslangan tadqiqotlarda tarjima motivatsiyasi va tarjima ekvivalentligiga e’tibor qaratilishi ta’kidlanadi: tarjimon ular yordamida foregnizatsiya va domestikatsiya (yoki англ. domestication and foreignization; одомашнивание и отчуждение) qilishi, shuningdek, tarjima jarayonida til belgisining qaysi ma’nosini yetkazish maqsad qilinganligini aniqlashi mumkin. Aniq misollarni tahlil qilib bo‘lgandan so‘ng badiiy asarlardagi raqamlarni tarjima qilishda so‘zma-so‘z tarjima, izohli so‘zma-so‘z tarjima, erkin tarjima va almashtirish kabi metodlardan foydalanish mumkinligini taklif qilamiz.

**Kalit so‘zlar:** raqamlar tarjimasi; Bi Feyyu romanları; ijtimoiy semiotika; tarjima motivatsiyasi; tarjima ekvivalentligi.

**Аннотация.** Би Фэй-юй, один из представителей китайских писателей после 60-х годов, является важной фигурой китайского литературного круга, а его романы широко переводятся за рубежом. Использование числительных в его романах имеет свои особенности. В процессе перевода его произведений с китайского на русский язык из-за культурных различий двух стран и разного исторического фона перевода перевод числительных также столкнулся с различными трудностями. В статье в качестве материала исследования используется русскоязычная версия сборника повестей «Лунная опера», анализируются конкретные переводческие примеры, обобщаются переводческие барьеры и неправильные переводы числительных, которые можно разделить на три вида: референтные числительные, безреферентные числительные ( pragmaticальная функция) и идиомы, содержащие числительные. В исследованиях, основанных на социосемиотике, делается акцент на переводческой мотивации и переводческой эквивалентности, с помощью которых переводчик мог определить использование форенизации, или одомашнивания, а также передать, каково значение символа, в процессе перевода. После анализа конкретных примеров мы предлагаем использовать такие методы, как дословный перевод, дословный перевод с аннотацией, вольный перевод и замену при переводе числительных в художественных произведениях.

**Ключевые слова:** перевод числительных; повести Би Фэй-юя; социальная семиотика; мотивация перевода; эквивалентность перевода.

**Abstract.** Bi Fei-yu, one of the representatives of Chinese post-60s writers, is an important pillar of the Chinese literary circle. His novels are widely translated abroad. The use of numerals in his novels has specific characteristics. In the process of translating his novels from Chinese into Russian, due to the cultural differences between the two countries and the diverse historical background of translation, the numeral-translating encountered various changes. The article uses the Russian version of the novel collection “The Moon Opera” as the corpus, analyzes specific translation examples, and summarizes the translation barriers and mistranslations of numerals, which can be divided into three types: referential numerals, non-referential numerals (pragmatic function) and idioms with numerals components. The

research, based on socio-semiotics approach, puts emphasis on translation motivation and translation equivalence, with the help of which the translator could determine the use of foreignization or domestication. The study proposes the methods of literal translation, literal translation with annotation, free translation and replacement that can be effectively used in translating numerals in literary works.

**Key words:** translation of numerals; Bi Fei-yu's novels; social semiotics; translation motivation; translation equivalence.

**Kirish.** Sonlar xitoy tili tizimida noyob toifalar qatorida turadi. Ya'ni xitoy tilida sonlar o'zining asl ma'nosidan tashqari turli xil hissiy va ritorik ma'nolarni ham ifodalay oladi. Bundan tashqari, xitoy tilidagi sonlar o'zining uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida so'zlashuv iboralari shaklida o'mashib qolganligi, maxsus referent otlarga aylanganligi, o'zida muayyan ijtimoiy vaziyatlarni birlashtirganligi hamda madaniy noekvivalent lug'atda o'z o'miga ega bo'lganligi ham kuzatiladi. Shu bois aksar hollarda xitoy tilidagi sonlarni tarjima qilish jarayonida muammolar paydo bo'ladi. Ayni shu jihat bizning e'tiborimizni tortdi.

Til butun bir tizim bo'lib, undagi barcha elementlar bir-biri bilan uzviy bog'langan. Shu ma'noda, sonlar til kategoriyasi sifatida birinchi navbatda til tizimiga ta'sir qiladi va ularning semantikadan tashqaridagi ijtimoiy va madaniy ma'nolari butun til tizimi tomonidan belgilanadi. Shu bilan birga, til tizimidagi sonlar va boshqa komponentlar ham o'zaro bog'liqdir. Shuning uchun, muayyan vaziyatlarda raqamlarning tarjimasi odamlarning o'ziga xos tushunchalariga zid bo'ladi va tarjima davomida turli xil to'siqlari paydo bo'lishi mumkin. Ushbu maqolaning tadqiqot obyekti Bi Feyyu romanlaridagi sonlardir. Bi Feyyu rasman 1991-yilda "Orol" romanini nashr etishi bilan adabiyot olamiga kirib keldi. Uning asarlari ko'لامi uncha yuqori bo'lmasa-da, yozilgan davri uchun o'ta muhim. Yozuvchining "Oy operasi" asari dastavval fransuz tiliga, keyinchalik yigirmadan ortiq dunyo tillariga tarjima qilindi va chet ellik kitobxonlar e'tirofiga sazovor bo'ldi. Bu asarlarning Rossiya tarjima qilina boshlanganiga ham ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Ushbu maqolaning tadqiqot obyekti bo'lmish "Oy operasi" asari 2014-yili Sankt-Peterburgdagi Azbuka nashriyotida nashr etilgan bo'lib, tarjimasi rus xitoysunoslari Aleksey Rodionov va Olga Rodionovalar qalamiga mansub. Ushbu romanlar to'plamiga Bi Feyyuning beshta hikoyasi kiritilgan bo'lib, ular — "Uyda tartibsizlik" (《家里乱了》), "Birodarlar" (《哥俩好》), "Lin Xunning ta'tili" (《林红的假日》), "Ko'zлari ochiq holda uqlash" (《睁大眼睛睡觉》) va "Aktrisa" (《演员》) asarlaridir.

### 1. Adabiy asarlardagi raqamlar

Bi Feyyu asarlari o'ziga xos til uslubiga ega. U barchaga tanish so'zlardan foydalangan holda ular yordamida yangicha ma'nodagi fikrlarni bayon qilishga juda usta. Uning tili juda aniq va ravshan, ritorikaga, metafora va kinoyaga boy. Yozuvchining tiliga xos ayni

shu jihatlar tarjima jarayonida ko‘plab muammolarga, til to‘siqlari va qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi. Shu o‘rinda Bi Feyyuning tarjima haqidagi quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli: “Badiiy tarjima bu — ikkita birning yig‘indisi ikkidan ortiq bo‘lgan tarjima. Asosi yozuv, juda o‘ziga xos yozuv” (5, 49).

Mazkur fikr sonlarga ham taalluqli. Sonlarning xususiyatlari ham umumiy ma’noga, ham “Bi uslubi”ni o‘zida aks ettiruvchi “notanish” xususiyatlarga ega. Sonlarning rolini umumlashtirishda muallif ko‘plab taniqli mahalliy adabiy asarlardan ham foydalandi, jumladan, Chen Zhongshining “Oq kiyik”, Yang Jiangning “Cho‘milish”, Mo Yenning “Katta ko‘krak va semiz dumba” va “Qizil jo‘xori” asarlari, shuningdek, Bi Feyyu asarlaridagi raqamlarning o‘ziga xos o‘rnini ifodalashda uning qalamiga mansub “Xitoycha massaj” asaridan ham misollar keltirdik.

### **1.1. Adabiy asarlarda sonlarning o‘rni**

#### **(1) Atash ma’nosı**

Badiiy asarlardagi sonlarning asosiy vazifasi atash ma’nosini ifodalashdir. Sonlar nutqning ajralmas qismi bo‘lib, badiiy asarlarda ham keng qo‘llanadi. Atash ma’nosida ular o‘quvchilar osongina tushunadigan lingvistik komponentlar, masalan, yosh, vaqt, sana, aniq miqdor va boshqalarni ifodalaydi. Bu qism haqida batafsil to‘xtalishni lozim topmadik.

#### **(2) Yashirin ma’no**

Xitoy tilida sonlar yashirin ma’noni ham ifodalab keladi. Bu xususiyat yozuvchilar tomonidan badiiy asarlarga ham ko‘chiriladi, ya’ni badiiy asarlarda ham sonlar yashirin ma’noni ifodalashi holatlari tez-tez kuzatiladi. Ikki ketma-ket tartibli yoki tartiban yaqin bo‘lgan raqamlar orqali yashirin ma’noni ifodalash ko‘p uchraydi, masalan: “三年两载” (ikkita uch yil), “三五成群” (uch-besh kishilik guruhlarda) kabilar. “几”(bir qancha)“两”(ikki) kabi bitta raqam yoki miqdor so‘z yordamida ham yashirin ma’no ifodalash mumkin. Bundan tashqari, aniq raqamlar ham yashirin ma’noni ifodalashi mumkin va bu vaqtida raqamlar ko‘pincha kontekstdagi ma’lum bir madaniy ma’noni ifoda etadi. Masalan: misol: 她身材高而俏，面貌秀丽，又善于修饰，长于交际，同学送了她一个“标准美人”的称号。据说追求她的人多于孔门弟子七十二。（《洗澡》）*U uzun bo‘yli, qaddi-qomati chiroyli, yuzlari suluv, o‘ziga qarab yuradi va muomalasi ham yaxshi. Sinfoshlari uni “go‘zallik andozasi” deb atashadi. Aytishlaricha, unga oshiqlarning soni Konfutsiyning yetmish ikki shogirdidan ham ko‘proq.*

“Yetmish ikki” — bu aniq raqamdir (sanoq ma’nosida aniq raqam. Ba’zi olimlarning fikricha, Konfutsiyning ilk shogirdlari aynan yetmish ikkita bo‘lgan). Ammo yuqorida keltirilgan misolda bu son “ko‘p” ma’nosiga urg‘u berish uchun ishlataligan.

### (3) Ritorik va bo‘rttirish ma’nosи

Adabiy janrlarda sonlar ko‘pincha badiiy konsepsiya uyg‘unligini to‘ldirish maqsadida turli xil ritorik usullarni ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, qadimgi she’rlardagi raqamlar tenglik, taqqoslash, urg‘u berish kabi uslublarda qo‘llangan. Du Muning 《江南春·千里莺啼绿映红》(Jiangnan bahori) she’ridagi “南朝四百八十寺，多少楼台烟雨中” (Janubiy sulolaning to‘rt yuz sakson butxonasi, Qancha ayvonlar yomg‘ir va tuman ostida) jumlasini misol qilsak, bu yerdagi “to‘rt yuz sakson” raqami “ko‘p” ma’nosini ifodalashi bilan bir qatorda she’rdagi ritm va ohang kabi muhim elementlarni ifodalashda xizmat qilgan. Bu kabi misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Masalan, Li Bayning 《梦游天姥吟留别》(Tianlao tog‘ida daydib ayriliq she’rini o‘qish) she’ridagi “天台四万八千丈，对此欲倒东南倾” (Shiftning balandligi qirq sakkiz ming fut va men undan janubiy-sharqqa tushmoqchiman) jumlasida ham to‘rt va sakkiz raqamlaridan foydalanilgan.

Xitoy tilidagi ba‘zi raqamlar yoki miqdorni bildiruvchi so‘zlar ko‘pincha shakl, o‘qilish jihatidan bir xilligi yoki ma’lum afsona va an’anaga bog‘liqligi sababidan kitobxonda o‘zgacha bir leksik ma’noga tasavvur hosil qiladi. Masalan:

*I- misol: 到解围的第四天，孝文媳妇向婆婆白赵氏请示早饭做什么？得到的是“做下谁吃？”她就没有再进灶房。“四”是不吉祥的数字，隐含着“事”。（《白鹿原》）Qamalning to‘rtinchi kunida Syaovenning ayoli qaynonasi Bay Chjaodan nonushtaga nima tayyorlash kerakligi haqida maslahat so‘radi. “Kimning tamog‘idan ovqat o‘tardi?!” degan javobni olgach, oshxonaga qaytib qadam bosmadi. “To‘rt” bexosiyat raqamdir (Oq kiyik).*

### (4) Frazeologizmlarda ishlatilishi

Raqamlar frazeologizmlar tarkibida ham ko‘rinish berib kontekstdagi ma’noni ifoda etishga xizmat qiladi. Bu holatda raqamlar yakka o‘zi ma’no ifodalamaydi, balki kontekstdagi ma’noni to‘ldirishga xizmat qiladi. Haqiqiy ma’noni ifodalovchi ba‘zi so‘zlar o‘z ma’nosini yo‘qotib, ko‘chma ma’noni ifoda etadi. Masalan, Mo Yen tong haqida shunday yozadi: “三星西斜，弯弯的月牙儿挂在树梢。” (Uchyulduz g‘arbga egilib, hilol daraxtshoxlarida osilib turar) (“Katta ko‘krak va semiz dumba”), “三星正晌，黎明前的黑暗降临。” (Uchyulduz mahali, tong yaqinlashgach zulmat chekinar) (“Qizil jo‘xori oilasi”). “三星西横，北斗转向”(Uchyulduz g‘arbga egilib, katta ayiq yo‘nalishini o‘zgartirdi) aynan tong ota boshlaganini anglatadi, bu yerda raqam o‘z ma’nosida kelgan bo‘lsa-da, raqam ma’nosini yo‘qotgan. Bundan tashqari, aksar frazeologizmlar

tarkibida kelgan raqamlar mavhum miqdorni anglatadi. Masalan: “**九牛一毛**” (o‘z ma’nosida: “to‘qqiz buqadan bir tola”, ko‘chma ma’noda “dengizdan bir tomchi”), “**三番五次**” (o‘z ma’nosida: “uch marta, besh marta”, ko‘chma ma’noda: “yana va yana; ko‘p marta”). Yana ba’zi frazeologizmlar tarkibidagi raqamlar avvalboshda o‘z ma’nosida bo‘lib, vaqtlar o‘tishi bilan mavhum ma’noga aylangan. Masalan: “**三顾茅庐**” (o‘z ma’nosida: “chaylaga uch marta tashrif buyurish”, ko‘chma ma’noda: “qattiq turib so‘rash”).

Tarkibida raqam bo‘lgan so‘zlashuv tilida qo‘llaniladigan iboralarning ham o‘ziga xos jihatlari bor va ko‘pincha ibora ichidagi ma’lum narsaning miqdorini yoki ma’lum voqeanning vaqtini ifodalaydi. Masalan:

*2-misol: 母亲说：“百日也不要等了，‘七七’过了就办。” (《白鹿原》) (Ona dedi: Yuzini kutmaymiz, qirq to‘qqizi o‘tgandan o‘tkazamiz. “Oq kiyik”).*

*3-misol: 白嘉轩杀了一头猪，做下十二件子的丰盛席面，款待亲朋好友和几乎整个村庄里的乡党。 (《白鹿原》) (Bay Jiasuan bir cho‘chqani so‘yib do‘satlari, oilasi va butun qishloq aholisini to‘ydirishga yetadigan o‘n ikkilik ugrasini tayyorladi. “Oq kiyik” ).*

Yuqoridagi misollarda kelgan “**百日**”(yuz kunligi) va “**七七**” (yettita yettisi, ya’ni qirq to‘qqiz kunligi) dafn marosimidan keyingi muddatni anglatuvchi iboralardir. “**十二件子**” (o‘n ikki narsa) esa Shansi ugrasining bir turi. Bu misollardagi raqamlar ma’lum mintaqa udumlarining madaniy mazmunini anglatadi.

### **1.2. Bi Feyyu asarlaridagi sonning o‘rni va o‘ziga xosligi**

Bi Feyyu qo‘llaydigan so‘z va jumlalaridagi “notanishlik” ta’siri kitobxonni chuqur o‘yga toldiradi. Bu holat uning asarlarida sonlar ishlatilishida ham o‘z aksini topgan va shu sababli Bi Feyyu asarlaridagi raqamlarda o‘z vazifasidan tashqari uning o‘ziga xos uslubi ham bor. Muallif Bi Feyyu asarlaridagi raqamlarning qo‘llanilishidagi o‘ziga xosliklarini bir nechta holatlarda jamlab quyidagi to‘rt turga ajratdik:

#### **(1) “Notanishlik” ta’siri**

Bi Feyyu asarlaridagi sonlarning asosiy o‘ziga xosligi uning tilidagi o‘ziga xoslik singari “notanishlik” ta’siridir. Bi Feyyu raqamlarni qo‘llashga juda usta, personajlar rolini aniq tasvirlash va personajlar emotsiyalarini yaxshiroq yoritib berish uchun raqamlarni detallashtirishni yaxshi ko‘radi. Masalan:

*4-misol: 那是上一个世纪的世纪末，正是盲人推拿的黄金岁月。说黄金岁月都有点学生气了，王大夫就觉得那时候的钱简直就是疯子，拼了性命往王大夫的**八个手指缝里钻**。 (《推*

拿》) *O'tgan asr oxirlari, a'molar massajining oltin asri edi. Oltin asr desa biroz bolalarcha bo'lib qoladi. Doktor Vangning fikricha, o'sha davrdagi pullar aqlbovar qilmaydigan darajada bo'lgan. Qo'yarda-qo'ymay doktor Vangning barmoqlarning sakkizta orasiga tiqishardi* ("Massaj").

"Kaft" yoki "o'nta barmoq" emas, balki "barmoqlarning sakkizta orasi" deya ko'zi ko'r insonning pul ishslash jarayonini bayon etish o'z o'rniда va juda nozik ifoda uslubidir. Ko'zi ojiz inson pulni qo'llari bilan his etish orqali taniydi. Barmoqlarning sakkizta orasi ifodasi "Massaj" asarining juda ko'p o'rniда uchraydi va hammasida ko'zi ojiz odamning hislarini ifodalaydi. Ta'bir joiz bo'lsa, barmoqlarning (sakkizta) orasi Bi Feyyu tushunchasida ko'zi ojiz insonning qalb "ko'zi" bo'lib, shu "ko'zlar" yordamida ular hayotdagи turli narsalar-u sodir bo'layotgan hodisalarni ko'rib his eta oladi.

### (2) Sonlar va asar mazmuni o'rtasidagi bog'liqlik

Sonlar syujet bilan aloqaga kirishgach metafora vazifasini o'taydi. Masalan:

*5-misol: 高老师现在就蹲在玉米的身边，微笑着，脸上的皱纹像一个又一个圆括号和方括号。玉米吃不准高老师的心里在怎样地加、减、乘、除，结果会不会也是“0”呢？* (《玉米》)  
Ustoz Gao ayni damda Jo'xorining yonida o'tirar, tabassum qilganda yuzidagi ajinlari aylana qavs va to'rtburchak qavsga o'xshab ketardi.

Bu jumlada ustoz Gaoning dars jarayonida qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarini bajargani va natija "0"ga teng bo'lgani-yu o'tirganlarning kulgusiga sabab bo'lgani aytilgan. Oldinroq Jo'xori ustoz Gaodan qaylig'iga xat yozishni so'ragan va ayni damda ustoz Gao "0" raqamidan foydalanib javob xatidan kutilgan mazmunni ifodalamoqda.

Raqamlar syujet bilan bog'liq bo'lib, murakkab til ramzları tizimining a'zosi ekanligini aks ettiradi. Belgilangan hissiy ohang va matn fonida raqamlar o'z ma'nolaridan boshqa ma'nolarga ega bo'lishi mumkin, bunda nazarda tutilgan ma'no adabiy asarlar uchun juda muhim bo'lib, bu asarning izchil ramzi va adabiy ifodasidir.

### (3) Sonlarning bir qancha ritorik uslublarda qatnashishi

Sonlarning o'zi faqat sanash funksiyaga ega, ammo matnga joylashtirilganda ular turli xil tavsifiy va ritorik metodlarni tuzishda ishtirok etishlari mumkin. Bu esa Bi Feyyu asarlarida keng qo'llaniladi. Masalan:

*6-misol: 小弟也是，一结婚就成了脓包，什么事都由着他的老婆摆布。不能这样啊！王大夫在一秒钟之内就原谅了自己的小弟。* (《推拿》) Kichik uka ham uylandi-yu lattachaynarga aylandi qoldi. Hamma ishda xotini aytgani aytgan, degani degan. Shunaqayam bo'ladimi! Doktor Vang **bir soniyada** kichik ukasini kechirdi ("Massaj").

*7-misol:* 饿到一定的地步，胃就变得神经质，狠刀刀的，凭空伸出了五根手指头。（《推拿》）Ochlik ma'lum darajaga yetganda oshqozon asabiy bo'lib **besh barmog**'ini cho'zadi ("Massaj").

Bu janob Bi Feyyuning til uslubi bilan bog'liq. U turli xil ritorik va tavsifiy usullardan foydalanishni yaxshi biladi va unga raqamlarni mohirlik bilan birlashtira oladi. Ritorikada ishtirok etadigan raqamlar endi neytral so'zlar emas, balki o'ziga xos ritorik texnikada maqtov yoki kamsitishning hissiy ranglari bilan taqdim eta oladi, shu bilan o'quvchi qalbidagi hissiy tarafakashlikni kuchaytiradi va kengaytiradi.

#### **(4) Sonlar ishtirok etgan frazeologizmlardan oqilona foydalanish**

Bi Feyyu romanlarida ko'plab sonlar ishtirok etadigan frazeologizmlardan o'ziga xos tarzda foydalaniladi. Bu aslida "g'alati" ko'rinishdir, ammo undagi obyekt oddiy raqamlar emas, balki raqamlarni o'z ichiga olgan frazeologizmlardir. "G'alatilik" ularni asl ma'nosidan mahrum qiladi va kontekstda yangi ma'no yaratadi. Masalan:

*8-misol:* 王大夫的胳膊和女同学的大腿一般粗，大拇指一摁就是入木三分的气力。（《推拿》）Doktor Vangning qo'llari talaba qizning soni kabi yo'g'on bo'lib, bosh barmog'i bilan bir bossa **uch fen chuqurligicha** botar edi ("Massaj").

*9-misol:* 沙复明玩大了。他的生意脱颖而出。忙起来的时候恨不得把自己的身体来一个五马分尸。（《推拿》）Sha Fuming katta o'yinga kirgan. Uning tijorati ancha ko'zga tashlanib qolgan. Ishga sho'ng'igan vaqtida tanasini **besh ot parchalagandek go'yo**.

Bu jumlalardagi iboralar endilikda asl ma'noni emas, balki o'qish uchun qiziqarli bo'lган "yuzaki ma'no"ni aks ettiradi.

Yuqoridagi to'rt qismda muallif tomonidan to'planib saralangan raqamlardan foydalanish xususiyatlari va uslublari ko'rsatib o'tildi. Muallif Bi Feyyu romanlarida uchragan raqamlarni tadqiqot obyekti sifatida olib, ularni rus tiliga tarjima qilishda yuzaga kelgan muammolar haqida so'z yuritib, muammolar yechimini topishga harakat qilindi.

#### **2. Bi Feyyu romanlarida uchragan sonlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar**

Oldingi bo'limdagи raqamlar xususiyatiga asoslangan holda, muallif Bi Feyyu asarlaridagi raqamlarni uch turga ajratadi: haqiqiy raqamlarga ishora qiluvchi, haqiqiy raqamlarga ishora qilmaydigan va frazeologizmlar tarkibiga kiruvchi raqamlar.

##### **3.1 Sanoqqa ishora qiluvchi sonlar tarjimasidagi qiyinchiliklar**

Badiiy tarjimada kontekstga ko'ra sonlar hissiy ma'nolarni o'z ichiga oladi, ya'ni unda o'z ma'nosidan tashqari pragmatik ma'nolar ham bo'ladi. Sonlarni tarjima qilishning murakkabligi shundaki,

tarjima matnida ular sonlarning grammatika va pragmatika jihatidan ikki xil ma’nosini tiklay olishi kerak.

### (1) His-tuyg‘ularni aniq yetkazib bera olmaslik

Muayyan kontekstda miqdor so‘zlari subyektiv ma’noga ega bo‘ladi. Miqdor so‘zlari so‘zlovchining his-hayajonlari, istak-xohishlari kabi hissiy aspektlarda tilning subyektivligini ko‘rsatishi mumkin. Masalan:

*10-misol: 我憋了气 (我憋了一肚子气) Nafasimni ichimga yutdim。他碰了灰 (他碰了一鼻子灰) Hafsalasi pir bo‘ldi。*” (曾建松 2016: 56)

Bu holat “bir” raqamida yaqqol ko‘rinadi. Ko‘p hollarda “bir” raqami syujetda personajning shaxsiy qarashlari va hissiy munosabatlarini ifodalashga yordam berishi mumkin.

*10-misol: 筱燕秋打断了李雪芬，笑着说，“只不过你今天忘了两样行头。”李雪芬一听这话就把双手捂在了身上，又捂到头上去，慌忙说：“我忘了什么了？”筱燕秋停了好大一会儿，说：“一双草鞋。一把手枪。”（《青衣》）*

Tarjima: Наконец, перебив Ли Сюэ фэнь, она с улыбкой сказала:

— Прекрасно, только сегодня ты забыла взять два предмета от своего костюма.

Услышав это, Ли Сюэ фэнь, стушевавшись, опустила свое платье, головной убор и поспешно спросила:

— А что я забыла?

Выдержав паузу, Сяо Яньцю сказала:

— Соломенные сандалии и пистолет.

Asl matnda, Li Syuefenning chiqishidan so‘ng Syao Yanchyu uning chiqishida bo‘lgan kamchiliklarini yuziga solib, masxaratomuz kinoya qildi. “Bir juft somon poyafzal” va “bir dona to‘pponcha” iboralari Syao Yanchyuning o‘scha damdagagi masxaratomuz holatini to‘liq ifoda eta olgan. Biroq tarjima matnida tarjimon bu ikki iborani to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilishi oqibatida asl matnda ifoda etilgan ma’no yo‘qqa chiqqan. Muallifga ko‘ra asl matndagi “bir” oldingi jumladagi “два предмета”ning davomi o‘laroq tarjima matnida ko‘rsatilishi lozim. Ya’ni: “Первый — соломенные сандалии, второй — пистолет”.

### (2) To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish sababli mavhumlik hosil bo‘lishi

Badiiy matnlardagi raqamlar alohida ma’noni anglatmaydi, balki kontekst bilan bog‘liq bo‘lgan lug‘atning bir qismi hisoblanadi. Tarjimani shunga ko‘ra amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Tarjima — bu asl matndagi alohida elementlarning yig‘indisini oddiygina yoki mexanik ravishda nusxalash emas, balki asl matn elementlarini ifodalash uchun turli xil texnikalarni ongli ravishda tanlashning murakkab jarayoni. Shuning uchun tarjima asl matn elementlaridan emas, balki asl matnning butun qismidan boshlanishi

kerak” (8, 237). Tarjima faqat raqamning o‘z ma’nosini o‘girishga qaratilib uning kontekst bilan mantiqiy aloqasiga e’tibor berilmasligi asl matnda kitobxoniga yetkazib berish ko‘zda tutilgan ma’nuning yo‘qotilishiga olib keladi.

*11-misol:* 图北的目光从大哥的脸上移开去，心里一下子飞远了。眼里吹起了一阵风，这阵风很阴冷，它来自一百五十年前，来自道光二十三年。（《哥俩好》）

Tarjima: Тубэй отвел взгляд, мысли его улетели вдруг совсем далеко. Словно в глаза ему дунул холодный ветер, **донесшийся из глубины ста пятидесяти лет, из времен двадцать третьего года правления императора Даогуана.**

Bu misollarda ko‘rsatilgan “bir yuz ellik yil oldin” va “Daoguan imператорларининг 23-yili” yil ko‘rsatkichlarini o‘qigan xitoylik kitobxon bular bir vaqtning ikki xil ifodasi ekanligini yaxshi tushunadi. Aynan qahramonning fikrlari o‘z shajarasidagi “muallimlar”ning birinchi avlodiga borib taqaladi. Ammo tarjima tilida kitobxonlar Xitoy tarixidan yetarli bilimga ega bo‘lmaganliklari sababli “Daoguan imператорларининг 23-yili” ifodasini tushunmasligi, hatto u va “bir yuz ellik yil oldin” ifodalari turli vaqt ko‘rsatkichlari deb xato tushunishlari mumkin. Shu tufayli bu kabi holatlarda ikki vaqt ko‘rsatkichi orasidagi bog‘liqlikka urg‘u berib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan: “**донесшийся из времен двадцать третьего года правления императора Даогуана — из глубины ста пятидесяти лет**”.

### (3) Madaniy omillar tufayli vujudga keluvchi tarjima muammolari

Ba’zi raqamlarni qo‘llashda, yetarlicha madaniy bilimlarga ega bo‘lmagan holatda so‘zma-so‘z tarjima orqali boshqa til kitobxoniga ularning tushunarli bo‘lishini ta’minlash juda mushkuldir. Masalan:

*12-misol:* 嫦娥在筱燕秋四十岁的那个雪夜停止了悔恨。死因不详，终年四万八千岁。（《青衣》）

Tarjima: В эту снежную ночь, когда Сяо Яньцю было сорок лет, Чанъэ перестали мучить угрызения совести. Причина ее смерти оставалась неясна, скончалась Чанъэ **на сорокавосьмитысячном году жизни**.

Yuqoridagi misolda “qirq sakkiz ming yosh” ifodasining so‘zma-so‘z, hech qanday tushuntirishlarsiz tarjima qilinganligini ko‘rishimiz mumkin. Muallif bu yerda keltirilgan qirq sakkiz ming yosh ifodasi tarjimon tomonidan Chang‘e haqidagi ertaklarda eslatib o‘tilgan deb tushunilganini taxmin qilishi mumkin. Ammo aslida bunday emas. Xitoy madaniyatida “qirq sakkiz ming” iborasining paydo bo‘lishi Yinyang nazariyasidagi “haqiqiy manba”ga borib taqaladi. Ular orasida tez-tez tilga olinadigan “sakson to‘rt ming” raqami miqdorning ko‘pligiga ishora qiladi. Keyinchalik, Vey-jin janubiy va shimoliy sulolalar davridan hozirgi kungacha yetib kelgan ko‘plab buddizm qonunlarida ham aynan shu ma’nolarni ifoda etuvchi “sakson to‘rt ming” iborasini uchratish mumkin. Masalan,

“Buddizmga eltuvchi sakson to‘rt ming yo‘l”, “sakson to‘rt ming minora” kabilar. Tang va Song sulolalari davriga kelib shoirlar o‘z she’rlarida “sakson to‘rt ming” iborasini qo‘llashgan. Masalan, “**八万四千颠倒想，与君同付醉眠中**” (陆游《醉歌》) (“Sakson to‘rt ming kishi teskari o‘ylar, olomon ila mast bo‘lib uxlar” (Lu Yu “Mastlik qo‘shig‘i”)). Keyinchalik odamlar shu asosda qofiya uchun “qirq sakkiz ming” iborasini o‘ylab topishdi. “Qirq sakkiz ming”dan tashqari “to‘rt yuz sakson” iborasi ham mavjud bo‘lib, barchasi miqdorning kattaligini bildiradi. Masalan, “**而来四万八千岁，不与秦塞通人烟**” (李白《蜀道难》) (“Qirq sakkiz ming yoshda ham Chin qal’asi to‘lma gay” (Li Bay “Si Chuanga borar yo‘l mashaqqatli”)), “**南朝四百八十寺，多少楼台烟雨中**” (杜牧《江南春》) (“Janubiy sulolaning to‘rt yuz sakson butxonasi, Qancha ayvonlar yomg‘ir va tuman ostida” (Du Mu “Jiangnan bahori”)).

Shunday qilib, bu yerdagi “qirq sakkiz ming yosh” iborasi qadimgi xitoy tilining ritmik go‘zalligidan kelib chiqqan. Muallifning fikricha, bu o‘rinda asl matndagi raqamlarni asl matndagidek tarjima qilsa bo‘ladi, zero, qirq sakkiz ming raqami shundoq ham o‘quvchida juda uzoq muddat tasavvurini uyg‘otadi. Biroq muallifga ko‘ra tarjimaga izohlar qo‘shish kerak bo‘ladi. Asarni tarjima matnidan o‘quvchilar qadimgi xitoy tili haqida ma’lumotga ega emas, shu sababdan kitobxonga tushunarli bo‘lishi uchun qo‘shimcha izohlar qo‘shish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Quyidagi kabi izoh qo‘shish mumkin: “*Цифра «сорок восемь тысяч» — неопределенное указание, имеет историческое и ритмическое значение.*”

### **3.2 Sanoqqa ishora qilmaydigan sonlar tarjimasidagi qiyinchiliklar**

Sanoqqa ishora qilmaydigan sonlar deganda raqam ko‘rinishiga ega bo‘lgan, ammo badiiy asarlarda sanash ma’nosiga ishora qilmaydigan sonlarga aytildi. Bi Feyyu asarlarida uchraydigan bu kabi sonlarni taxminan g‘alatilik ta’siriga ega raqamlar, mavhum semantikali raqamlar va syujet ahamiyatiga ega sonlarga bo‘linadi. Quyida mualif ushbu turdagи raqamlarning tarjima muammolarini aniq misollarda alohida tahlil qiladi.

#### **(1) G‘alatilik ta’siriga ega raqamlar tarjimasidagi qiyinchiliklar**

So‘zlar nafaqat hisoblash xususiyatiga ega, balki ular bir xil til belgilari tizimidagi boshqa belgilari bilan ham bog‘lanishi mumkin. Simvolizm ma’nosida, Bi Feyyu asarlarida asosan uyg‘un ikki xillik piktogrammasida namoyon bo‘ladi, bu ham Bi Feyyu romanlarining asosiy xususiyatlaridan biri — “g‘alatilik”ning namoyon bo‘lishidir. Tarjimada “g‘alatilik” va uning o‘zgacha ma’noli ta’sirini saqlab qolish katta muammo hisoblanadi. Masalan:

*13-misol:* 图南的大哥大后五位数是 18888, 听上去像一个口吃的家伙说“要发”。(《哥俩好》)

Tarjima: Последние пять цифр его мобильника были **один, восемь, восемь, восемь, восемь**, что по-китайски воспринималось на слух как речь заики, мечтающего разбогатеть.

Yuqoridagi misolda raqamlar so‘zma-so‘z tarjima qilingan. Ma’nosibat bilan bir xil bo‘lsa-da, ma’lumot yo‘qotilishi sodir bo‘limgandek tuyulsa-da, lekin muallif tomonidan mohirlik bilan qo‘llangan qochirim deyarli yo‘qqa chiqqan. Madaniy omillar tufayli shu kabi “g‘alatilik” ta’siri sezilarli darajada pasayadi.

## (2) Mavhum semantikali sonlar tarjimasidagi qiyinchiliklar

Inson tilida ifodalangan ko‘plab tushunchalar aniq chegaralarga ega emas, bu “mavhumlik” tushunchasi bilan bog‘liq (Vu Tieping 1999:3). Amerikalik olim L.Zadeh ushbu hodisaga asoslanib “mavhumlik to‘plami” muammosini ilgari surdi va shu tariqa mavhumlik tilshunosligining kengayishiga zamin yaratdi. Raqamlar ham shular jumlasidan bo‘lib, aniq ma’nolarni ifoda qilishdan tashqari mujmal, noaniq ma’nolarni ham ifoda qiladi.

Xitoy tilidagi semantik jihatdan mavhum so‘zlarning aksariyati barchaga yaxshi tanish. Bir-biriga bog‘langan yoki yaqin bo‘lgan ikkita raqam birlashtirilganda yoki “yuz”, “ming” kabi so‘zlar paydo bo‘lganda, bu noaniqlik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Rus tilida ham shu kabi qoidalar mavjud bo‘lib, ular noaniq semantikani ko‘rsatgandan so‘ng raqamli so‘zлarni ochib beradi, shuning uchun mavhum sonli so‘zlarning ko‘p tarjimalarini bajarish mumkin. Biroq xitoy tilida noaniqlikka ishora qilishi mumkin bo‘lgan ba’zi sonlar ham mavjud, masalan, “ikki” raqами. Tarjimon bu noaniqlikni to‘g‘ri aniqlay bilishi kerak bo‘ladi. Masalan, “Birodarlar” asaridagi misolda:

*14-misol:* 图北回过头，表情里头全是十年寒窗。图北翻翻手上的书，很用功地说：“就两页了。”(《哥俩好》)

Tarjima: Тубэй тоже повернулся, выглядел он так, словно с головой ушел в учебу. Полистав в руках книгу, он, казалось, весьма нехотя отозвался: — Да тут осталось **две страницы**.

Yuqoridagi misoldagi “ikki sahifa” aslida ikki varaq qog‘oz ma’nosida emas, balki kamroq degan ma’noni anglatadi. Xitoy tilida “ikki” ko‘pincha mavhum semantikani ifodalab, “oz miqdor” ma’nosida keladi va bu vaqtida aniq miqdorni anglatuvchi ma’nosini yo‘qotadi. Tarjima matnida ham “ikki sahifa” deb keltirilganligidan shuni bilish mumkinki, tarjimon jumlada keltirilgan noaniqlikka ishorani to‘g‘ri anglab yetmagan va buning natijasi o‘larоq tarjimada xatoga yo‘l qo‘ygan. Ammo rus tilida ham “ikki” (juft) soniga ma’no jihatidan juda yaqin bo‘lgan “пара” (juft) so‘zi borki, u juft ma’nosidan tashqari “bir nechta” ma’nosini ham anglatadi. Shu sababdan muallif yuqoridagi misolda “пара страниц” deb tarjima qilinishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi deb hisoblaydi.

### (3) Syujet ahamiyatiga ega sonlar tarjimasidagi qiyinchiliklar

Badiiy asarlarda kontekst va syujetni aks ettirish ta'siriga ega bo'lgan sonlar sinfi ham mavjud bo'lib, ular nafaqat miqdor ma'nosini ifodalaydi, balki oldingi matnni izohlovchi yoki keyingi jumlaga ishora qiluvchi boshqa so'zlar bilan so'z birikmali hosil qiladi.

Ushbu turdag'i syujet ahamiyatiga ega sonlar tarjimasida to'siqlar mavjud. Agar tarjimon yetarli darajada sonlar ma'nolarini his qilish qobiliyatiga ega bo'lmasa, bu turdag'i sonlarni boshqa turdag'i sonlar bilan chalkashtirib yuborishi va bu, o'z navbatida, tarjimadagi nuqsonni keltirib chiqarishi mumkin. Ammo bu holatda shaklning o'ziyoq mazmunga ega bo'ladi. Masalan:

*15-misol: 国有大臣，家有长子，你替大哥我把祖宗八代凑齐了，大哥我不敢对不起你。你听清楚了？（《哥俩好》）*

Tarjima: Как говорится, государство держится на министрах, а семья — на старшем брате. Ты, главное, вместо меня **уважь предков**, а я как старший брат уж не посмею тебя обидеть. Ты меня понял?

Bu misolda ajratib ko'rsatilgan ajdodlarning sakkiz avlodni birikmasi syujet bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Yinlar oilasi yetti avlod muallimlarini yetishtirib chiqargan. Keksa ota oilasining insonlarga ta'lif berish an'anasi sakkizinchi avlodga ham yetib borishidan umid qilgan. Ammo oila an'anasi davom ettirish sakkizinchi avlod vakili bo'l mish katta farzand Yin Tunanga kelganda, u o'qituvchilik qilishdan voz kechib katta shaharga borib omadini sinab ko'rishni tanlaydi. Keksa ota oxir-oqibat vafot etadi. Otaning eng katta armoni u umid qilgani kabi Yin oilasining murabbiylik an'anasi "sakkiz avlod"ga yetmagani edi. Shu sababdan yuqoridagi misolda Tunan ukasi Tubeyga muallimlik qilishi kerakligini aytib, oilasining sakkiz avlodli orzusini ro'yobga chiqarishga da'vat qilayotgani keltirilgan. Shunday qilib, "ajdodlarning sakkiz avlod" birikmasi aniq syujet ahamiyatiga egadir. Bunday holatda tarjimaning to'liq qilinmasligi asl matndan chetga chiqishga va hissiy ma'noda farqlar hosil bo'lishiga olib keladi. Muallif bu o'rinda sonlarni tarjima qilish bilan bir qatorda madaniy izohlar keltirilish orqali xitoyliklar uchun sakkiz avlod tushunchasi to'liq muvaffaqiyat ramzi ekanligini tushuntirib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaydi. Shu tariqa tarjima asl matnga yaqinroq bo'lishi hamda asarni tarjimadan o'qiydiganlarning tushunishi asl matndan o'qiydiganlarning tushunishiga yaqinroq bo'lishiga erishish mumkin. Quyidagicha tarjima qilishni maslahat beramiz: "*вместо меня стань преподавателем восьмого поколения в нашей семье*".

Syujet ma'nosidagi sonlar asar mazmuniga katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, bu ta'sirni ko'ra olmaslik tarjimada xatoga yo'l qo'yilishiga olib keladi.

### 3.3 Frazeologizmlarda uchraydigan sonlar tarjimasidagi qiyinchiliklar

Xitoy tilidagi asarlarda uchraydigan frazeologizmlar tarjimasi ham qiyin hisoblanadigan ifoda turi hisoblanadi. Tarjima olamida ularni tadqiq etish uzoq vaqtlardan buyon davom etib kelmoqda. Ushbu bobda sonlarni tadqiqot obyekti qilib olinib, sonlar qatnashgan frazeologizmlar misollarda ko'rib chiqilib, tarjimada yuzaga keladigan to'siqlar tahlil qilinadi.

#### (1) Iboralar tarkibidagi sonlar tarjimasidagi qiyinchiliklar

Iboralar tarkibidagi sonlar tarjimasi muammolari aslida tarkibida sonlar mavjud bo'lgan iboralar tarjimasidagi muammolardir. Bunda raqamlarning mavjudligi zaifroq hisoblanadi. Kitobxon e'tibori sonlarga emas, balki tarkibida sonlar mavjud bo'lgan iboraning o'ziga qaratilgan bo'ladi. Tarjimadagi qiyinchilik sababi sonlar emas, balki iboraning ma'nosidir. Ibora kabi o'ziga xos birikmalarни tarjima qilishda shakl ham, mazmun ham o'zgarmasligiga erishishning deyarli iloji yo'q. Ko'pincha shakl ham, mazmun ham o'zgarmasligiga erishishga intilish oqibatida xato tushunish holatlari yuzaga keladi. Masalan:

*16-misol: 原文：众人的心照不宣有时候更像一次密谋，其残忍的程度不亚于千夫所指。（《青衣》）*

Tarjima: Но иногда в таком поведении гораздо быстрее угадываются тайные мысли, понимание без слов будет похуже, чем если бы **все презрительно тыкали в тебя пальцем**.

“千夫所指” odamlar g'azabini keltirish va hamma tomonidan malomat qilinish ma'nosini anglatadi. Ko'rinish turibdiki, tarjimada “ming” so‘zi to‘g‘ri tushunilgan va “hamma” deb tarjima qilingan. Biroq tarjimon iborada kelgan raqamdan boshqa so‘zlar ma'nosini noto‘g‘ri tushungan, ya’ni “所指” so‘zini “qo‘lni bigiz qilmoq” tarzida tarjima qilgan. Ammo iboradagi “指” nafaqat qo‘lni bigiz qilishni, balki undanda ko‘proq hollarda malomat qilish, o‘pkalash ma'nolarini anglatadi. Shu sababdan, garchand tarjimon astoydil shakl va mazmun uyg‘unligiga erishmoqchi bo‘lsa-da, avvalboshdan matn mazmunini xato tushunishi tarjimada xatolar yuzaga kelishiga olib keladi. Yuqoridagi misolda ham tarjimon tomonidan ibora qismlaridan birining xato tushunilishi natijasida iborada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan “malomat qilish” ma'nosi tushib qolgan. Shuning uchun muallif “malomat qilish” ma'nosini yuzaga chiqarish maqsadida quyidagicha tarjima qilishni maslahat beradi: “чем если бы все на тебя осуждающе указывают”.

#### (2) Kundalik matallar tarkibidagi sonlar tarjimasidagi qiyinchiliklar

Matallar — adabiy xususiyatlarni o‘zida mujassam eta oladigan ifoda turidir. Iboralar bilan solishtirganda matallardagi sonlarning raqam ma'nosi mavjudligi ancha kuchli va shu sababdan tarjimada tushib qolishi mushkul. Shu bilan bir qatorda, matallar turg‘un bo‘lib yaxlit ma'nosini hisobga olish zarur. Muallif Bi Feyyu keltirgan

matallar tarjimasida yo‘l qo‘yilgan xatolarni umumlashtirib quyidagi eng ko‘p uchraydigan ikki turga ajratdi:

**a. Keragidan ortiq asl ma’noga tayanish**

Matallar tarjimasida tarjimon ko‘pincha uning tarkibidagi so‘zlarning asl ma’nosiga tayanadi. Aslida matallardagi sonlar asl ma’noda bo‘lmaydi va faqat “ko‘p” yoki “oz” ma’nolarini anglatadi. Bunday hollarda so‘zlarning asl ma’nosiga tayanish tarjimanining quruq va beo‘xshov bo‘lishiga olib keladi. Masalan, “Uyda tartibsizlik” asaridan olingan jumlada:

*17-misol: 你四两力气二两胆, 逼你造反你也不敢反。 (《家里乱了》)*

Tarjima: В тебе только что **сил граммов на две сти, а смелости — в половину меньше**, так что бунтовать — кишкадонка.

“四两力气二两胆” matalidagi “四两” va “二两” faqatgina bir kishining yuragi quyonnikidek ekanligini ifoda etgan holda Gou Chuanning qaynonasi unga nisbatan nafratli munosabatini bayon qilgan. Tarjima matnida esa “四两” asl ma’nosida, ya’ni 200 gramm deya tarjima qilingan. Xitoy tilida “两” soni og‘irlilik o‘lchov birligi sifatida “四两”(200 gramm), “八两”(400 gramm) ko‘rinishida matallar tarkibida ko‘p uchraydi. Shunday qilib, bu bir o‘ziga xos madaniyat ko‘rinishi bo‘lib, aniq bir miqdorni anglatmaydi. Bu jumlanı quyidagi kabi tarjima qilishni maslahat beramiz: “*В тебе только что сил столько мало, а смелости — в половину еще меньше*”.

**b. Madaniy sabablarga ko‘ra xato tushunish**

Bi Feyyu romanlaridagi matallarda ko‘pincha individual o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Uning shakli asl matallar shaklidan ajralgan, ammo asl mataldan olingan yoki moslashtirilgan va asl matallar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Bi Feyyucha matallarni to‘g‘ri tushunish uchun, avvalo, asl matallarning ma’nolarini aniqlay olish va shundan so‘ng ma’nosidan kelib chiqib matal tarkibidagi sonni aslicha tarjima qilish yoki qilmaslik borasida bir qarorga kelish kerak bo‘ladi. Aks holda noto‘g‘ri tushunish sababidan sodir bo‘ladigan xatoliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan:

*18-misol: “哥俩好”就此输给了“三桃园”。 (《哥俩好》)*

Tarjima: Так что у «Братцев» не вышло, они уступили победу «Саду трех персиков».

Yuqoridagi misolda kelgan “哥俩好”(birodarlar) va “三桃园” (uch shaftoli bog‘i) chuqur ma’noga ega. Ikki og‘a-ini Yin Tunan va Yin Tubey o‘rtasidagi ziddiyat tobora kattalashib borardi. Tunanning tug‘ilgan kuniga kelib ikki aka-uka ichkilik ichib “barmoqlar sonini topish” o‘yinini (ichkilik ustida o‘ynaladigan o‘yin bo‘lib, bunda har bir kishi barmoqlarini ko‘rsatish bilan bir vaqtida ma’lum raqamni aytadi, kimning aytgan raqami ikkalasi ko‘rsatgan barmoqlar sonining

yig‘indisiga teng bo‘lsa yutgan hisoblanadi va yutqazgan kishi aroq ichadi) o‘ynashdan boshqa bir-biriga aytadigan gaplari qolmagan edi. Akasi Tunan faqat “哥俩好”(birodarlar)ni ko‘rsatar edi. Ukasi Tubey esa ketma-ket uch marta yutqazgach tezda “三桃园”(uch shaftoli bog‘i)ni ko‘rsata boshlaydi, ammo Tunan o‘z uslubini o‘zgartirishni istamaydi. Shunday qilib, oxir-oqibat “哥俩好”(birodarlar) “三桃园”(uch shaftoli bog‘i)ga imkoniyatni boy beradi. Bu mataldagi “三”(uch) “uch shaftoli daraxti” emas, “uch og‘a-ini” degani. Bu ikki mataldagi “俩”(ikki) va “三”(uch) bir-biriga teskari tushunchalardir. Tarjima matnida bu ikki sonning qarama-qarshilik ma’nolari ko‘rsatilmaganligi bilan bir qatorda, ikkinchi matal “三桃园” tarjimon tomonidan noto‘g‘ri tushunilishi oqibatida xato tarjima qilingan. Muallif bu ikki matalni quyidagicha tarjima qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi: “двоє родных братьев” ва “трое названных братьев”.

### **3. Ijtimoiy semiotika nuqtayi nazaridan Bi Feyyu asarlaridagi sonlar tarjimasini tahlil qilish**

So‘nggi yillarda semiotika tarjima bilan juda integratsiyalashgan va ko‘plab tadqiqotchilar tarjimani o‘rganishda semiotika nazariyasiga tayanadi. Bugungi kunda bizga tanish bo‘lgan semiotikaga tilshunoslar Sossyur va Pirs asos solishgan. Tarjima tadqiqotlarida ko‘plab semiotik yondashuvlar mavjud, jumladan, lingistik semiotika, Pirs semiotikasi, madaniy semiotika, analitik semiotika, adabiy semiotika va boshqalar, bunga ijtimoiy semiotikalar ham kiradi. Sonlar til belgilaringin bir turi o‘laroq, ularning tarjima muammolarini o‘rganishda ijtimoiy semiotika nazariyasiga oid bilimlar yetachki rol o‘ynashi mumkin.

#### **4.1 Tarjima tadqiqotiga ijtimoiy semiotik yondashuv**

Ijtimoiy semiotika nazariyasi modelidan kelib chiqib tarjima amaliyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan tarjima motivatsiyasi va tarjima ekvivalentligi masalalarini bilishimiz mumkin bo‘ladi. Zamonaviy tarjimada anchadan buyon nafaqat matnga, balki chuqurroq mafkuraviy masalalarga ham e’tibor qaratiladigan bo‘lgan. Nutq ekvivalentligiga erishish qiyin va ko‘pincha uch jihatni (ma’no, pragmatika va til) hisobga olishning iloji yo‘q va shu tufayli mazmun mutanosibligini amalgalashish talab qilinadi.

#### **4.2 Tarjima motivatsiyasi masalasi: moslama va nomoslama tarjima tanlovi**

Tarjima motivatsiyasi zamon va ijtimoiy mafkura foni kabilar bilan chambarchas bog‘liqdir. “Samoviy ishlar nazariyasi”ning dastlabki mahalliy tarjimasi juda ko‘p marotaba qayta-qayta ko‘rib chiqilishi va o‘zgartirilishiga sabab Yan Funing ishontirish, yetkazib berish tamoyillariga mos kelmasligida edi. Biroq bu o‘zgarishlar o‘sha davrning ijtimoiy va madaniy cheklarini, qudratli mamlakat manfaatlarini aks ettiradi. G‘arbdan keltirilgan ushbu kitob xalqimiz

tomonidan yaxshi hazm qilinishi uchun Xitoy xalqi uchun maqbulroq tarjima usulini qo'llash kerak bo'lgan, albatta. Bu tarjima motivatsiyasi bilan belgilanadi. Masalan, mamlakatda tarjima qilingan birinchi rus romani “Kapitan qizi” Qing sulolasi davrida (1903) “Rus sevgi tarixi” deb tarjima qilingan. Keyinchalik Lu Syun chet el adabiyoti mahalliy madaniyatga moslashtirilib emas, aynan chet el adabiyoti kabi tarjima qilinishi kerakligini ta'kidladi va shundan boshlab nomoslama tarjima muhokama qilina boshlandi. Uning nomoslama tarjimaga bo'lgan targ'iboti o'sha paytdagi insonlar dunyoqarashining kengaygani bilan bog'liqdir. Bugungi kunga qadar mos va mos bo'limgan tarjima nazariyalari o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Biz yashab turgan bugungi davr yanada bag'rikeng, o'zaro aloqlar kengaygan, farqlanishlar juda kam uchraydigan dunyo bo'lib, moslama tarjimaga deyarli ehtiyoj yo'q. Shu bilan birga, bu davr o'quvchilar subyektiv yondashuvga ega bo'lgan davr. Shu sababli moslama tarjima ham o'quvchilarga o'z fikrlarini chalg'itishga va mustaqil fikr yuritishga imkon beradi. Demak, moslama tarjima yoki nomoslama tarjima usulini tanlashda bizga ijtimoiy semiotika tarjima konsepsiyasidagi tarjima motivatsiyasi yordam beradi.

### **(1) Mos bo'limgan tarjima**

Bi Feyyu asarlarining chet elga chiqishi Xitoy adabiyoti va madaniyatining kuchli hayotiyligi va jozibadorligi ramzidir. Madaniyatni yoyish istagidan kelib chiqib, madaniy xususiyatlarga ega raqamlarni tarjima qilishda biz madaniy omillarni saqlab qolishga umid qilamiz. Bunda tarjima strategiyasi mos bo'limgan tarjimaga asoslansa, tarjima usuli sifatida asosan so'zma-so'z tarjima tanlanadi va ehtiyojga ko'ra qo'shimcha qilish bilan to'ldiriladi. Masalan:

*19-misol: “宁教一腔，不教一个字，宁教一个字，不教一口气。”（《青衣》）*

Tarjima: Уж лучше обучать второстепенному, чем существенному, а обучая существенному — не сообщать главного.

Bu tarjimada asl matnning madaniy mazmunidan voz kechilgan bo'lib, shaklda ham ekvivalent so'zlar deyarli ko'zga tashlanmaydi. Biroq bu yerda madaniy fon butun syujet bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, Pekin operasi allaqachon xalqaro miqyosda yuqori obro'ga ega. Nomos tarjima usuli bu yerda syujetga juda mos keladi. Quyidagicha tarjima qilishni maslahat beramiz: “Лучше обучать арию оперы, чем тон одного слова оперы, а обучая тон одного слова оперы — не инструктировать дух арии”.

### **(2) Mos tarjima**

Xitoy va rus madaniylari orasida juda katta farq mavjud. Agar tarjima qilingan asar va uni o'quvchilarning mutolaa ko'nikmalari orasidagi tafovut katta bo'lsa, shubhasiz, ularning bozori chaqqon bo'lmaydi va madaniy “globallashuv” amalga oshmaydi. Hatto keyingi mahalliy asarlarning chet tillariga tarjima

qilinishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shu sababdan muallifning fikriga ko‘ra, zamon xususiyatlarini aks ettirmaydigan va tarjima asl matn mazmuniga ta’sir qilmaydigan ba’zi hollarda moslama tarjima usulidan foydalanish madsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan:

*20-misol: 乐果想玩，但玩得痛快就得花钱：乐果想挣钱，然而挣到钱的工作做起来又太累人。“二美难并”。这句古话说得实在不错。（《家里乱了》）*

Tarjima: Ей хотелось веселой жизни, но приятные развлечения требовали расходов. Она думала о том, где взять денег, однако сама работа по добыванию средств казалась ей утомительной. Как очень точно говорили в древности, «**у каждой медали есть две стороны».**

“**二美难并**”(ikki go‘zallikni birlashtirish qiyin) va “**у каждой медали есть две стороны**” ma’no jihatidan bir-biridan farq qiladi. “**二美难并**” — “ikki quyonning ortidan quvgan hech birini tuta olmaydi” ma’nosini bildirsa, rus tiliga qilingan tarjima matni “har bir narsaning ikki tomoni bo‘ladi” ma’nosini beradi. Ammo asl matnni diqqat bilan o‘rganilsa, bu ikki jumla bir xil ta’sirga egaligi ko‘rinadi. Bundan tashqari, asl matnda “ikki go‘zallikni birlashtirish qiyin” dan keyin bu ibora qadimiy iboraligi ta’kidlab o‘tilgan. Shunday ekan, bunday holatlarda kitobxonga yanada tushunarli bo‘lishi uchun so‘zma-so‘z tarjima qilgandan ko‘ra mos tarjima usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

#### **4.3 Tarjima ekvivalentligi masalasi: ma’noni to‘g‘ri tanlay bilish**

Badiiy asarlarda nutq ekvivalentligi juda muhim hisoblanadi. Asosan, og‘zaki, referensial va pragmatik ma’nolarda ekvivalentlikka erishish nazarda tutiladi. Ammo, aslida, har uch jihatdan ekvivalentlikka erishishning deyarli iloji yo‘q. Shuning uchun tarjima jarayonida birinchi navbatda qaysi ma’noni yetkazishni tanlay bilish juda muhimdir.

##### **(1) Sonlar asosan so‘zlarning ma’nosini ifodalashi**

Badiiy asarlardagi sonlar asosan so‘zlarning ma’nosini ifodalasa, tarjima jarayonida juda katta qiyinchiliklar vujudga keladi. Gap ichidagi ma’no — bu faqat muayyan tizim ichidagina ifodalanishi mumkin bo‘lgan ma’no bo‘lib, ramzlar va belgilar o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. Bu aloqa ushbu til tizimidan foydalanuvchi odamlar tomonidan o‘rnataladi va ishlataladi. Til tizimlari turli xil bo‘lganligi tufayli tizim ichidagi bog‘lanishlarga boshqa bir til tizimlarida o‘xshashlarini topish juda mushkul. Shuning uchun shu va shunga o‘xshash holatlarda transliteratsiya va izohli so‘zma-so‘z tarjima kabi tarjima texnikalaridan foydalaniladi.

Tarjima tili tizimida tarjima qilinishi kerak bo‘lgan ma’noga yaqin ma’noni ifoda eta oladigan sonlar topilganda esa ma’noni izohlashdan voz kechilib, o‘sha ma’noni beruvchi sonlardan foydalanishga harakat qilinadi. Bunday tarjima aytishga oson, ammo ommalashmagan va undan amalda foydalanish oson emas. Biroq agar

u amalga oshirilsa, tarjimada juda ajoyib natijaga erishilgan bo‘ladi. Masalan:

*21-misol:* 筱燕秋的双眼呈到“八”字状，看上去有点像传说中的狐狸，妩媚起来了，灵动起来了。（《青衣》）

Tarjima: Глаза Сяо Яньцю повторяли **очертания летящей чайки**, отчего она стала похожа на лисицу из легенд про оборотней, облик ее стал еще более живым и соблазнительным.

Ushbu jumlada Syao Yanchuning sahna ortidagi bo‘yanish holati aks etgan. Tarjimada asl matnda nazarda tutilgan ma’nodan chetlashilgan va rus tilida ko‘p ishlatiladigan “baliqchi qush” ramziy ma’nosni yordamida xitoy tilidagi “teskari sakkiz” ma’nosni ifoda qilingan va ushbu almashtirish orqali so‘zlarining ma’nolari ham mohirlik bilan saqlab qolningan.

## (2) Sonlarning pragmatik ma’noni ifodalashi

Sonlar pragmatik ma’noni ifodalaganda ularning atash ma’nosni zaiflashadi va bu holat mavhum sonlardan yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mavhum sonlar ko‘pincha sonlarning o‘z ma’nosini ifoda etmaydi, balki sonlar yordamida “ko‘p” yoki “oz” ma’nolarini bildiradi. Masalan:

*22-misol:* 她笑得真是短暂，刚笑了二分之一，就没了。（《睁大眼睛睡觉》）

Tarjima: Улыбка ее длилась всего какое-то мгновение.

Ushbu jumladagi “二分之一” “qisqa” ma’nosida kelgan bo‘lib, xitoy tilida mavhumlik jilosiga ega. Agar u rus tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinsa, hamma uni bir xil ma’noda tushuna olishini kafolatlash qiyin va shuning uchun bu o‘rinda pragmatik ma’noni saqlab qolish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Xulosa.** Bi Feyyu romanlari o‘ziga xos lug‘at xususiyatlariga ega, ayniqsa, sonlarni tanlashda. Ular nafaqat atash ma’nosida, balki semantik ma’nolarni, iboralar-u matallar ma’nolarini ifodalashda ishtirok etadi. Bi Feyyu asarlaridagi sonlar, shuningdek, “g‘alatilik”, “syujet” ta’sirlariga ega bo‘lib, bunday so‘zlar kontekstda ko‘pgina madaniy va hissiy ma’nolar bilan birga keladi. Bu, albatta, tarjimadagi muammo va til to‘siqligi manbai sanaladi.

Sonlar tarjimasi masalasida biz tarjima motivatsiyasini zamon va ijtimoiy mafkura tushunchalari bilan bog‘laymiz. Mamlakatimizning hozirgi kungi madaniyatidagi “Tashqi dunyoga chiqish” targ‘ibotiga ko‘ra, asl matn mazmuni o‘zgarmasligini ta’minlash sharti bilan, zamon xususiyatlari va madaniy kelib chiqish ma’nolarini aks ettira oladigan ba’zi muhim o‘rinlarni tarjima qilishda nomoslama tarjima usuli tarjima strategiyasi sifatida qabul qilingan. Odatda qo‘llanadigan tarjima usullari asosan so‘zma-so‘z tarjima usuli va izohli so‘zma-so‘z tarjima usuli. Shu bilan birga, zamon xususiyatlarini aks ettirmaydigan ba’zi o‘rinlarda moslama tarjima usulini tanlash ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sonlarni tarjima qilish jarayonida ularning uch xil ma’no jihatlari (atash ma’nosni, kontekstdagi ma’no va pragmatik ma’no) har

birini hisobga ola bilishning deyarli iloji yo‘q va shu sababdan ma’noni to‘g‘ri tanlay bilish ham muhim masala hisoblanadi. Muallif, sonlar asosan kontekstdagi ma’noni ifodalaganda, tarjima atash ma’nosidan voz kechishga intiladi, deb hisoblaydi. Tarjima tili tizimida barcha jihatdan to‘la ekvivalent bo‘la oladigan kontekst ma’nosini topish mumkin bo‘lgan holat bundan mustasno albatta. Sonlar asosan pragmatik ma’noni ifodalaganda ham odatda atash ma’nosidan voz kechish evaziga pragmatik ma’no saqlab qolinadi va “parafraz” tarjima usuli qo‘llaniladi.

#### **Foydalanimgan adabiyotlar**

1. Би Фэйюй. *Лунная опера*[M] (пер. с кит. Алексея Родионова, Ольги Родионовой). Санкт-Петербург: Азбука, 2014.
2. 毕飞宇. *推拿*[M]. 北京: 人民文学出版社, 2008.
3. 毕飞宇. *青衣*(毕飞宇文集) [M]. 北京: 人民文学出版社, 2013.
4. 陈忠实. *白鹿原*[M]. 武汉: 长江文艺出版社, 2017.
5. 高方、毕飞宇. 文学译介、文化交流与中国文化“走出去”——作家毕飞宇访谈录[J]. 中国翻译, 2012, 33 (3) : 49-53页。
6. 莫言. *红高粱家族*[M]. 北京: 人民文学出版社, 2009.
7. 莫言. *丰乳肥臀*[M]. 北京: 北京十月文艺出版社, 2010.
8. 吴克礼主编. *俄苏翻译理论流派述评*[M]. 上海: 上海外语教育出版社, 2006.
9. 伍铁平. *模糊语言学*[M]. 上海: 上海外语教育出版社, 1999.
10. 杨绛. *杨绛文集*[M]. 北京: 人民文学出版社, 2009.
11. 曾建松. *汉语数量词的主观意义研究*[J]. 外语学刊, 2016 (3) : 54-58页。

#### **References**

1. Bi Feiyu. *Lunnaya opera* (Moon Opera), Saint Petersburg: Azbuka, 2014.
2. Bi Feiyu. *Massage* [M]. Beijing: People's Literature Publishing House, 2008.
3. Bi Feiyu. *Tsing Yi (Collected Works of Bi Feiyu)* [M]. Beijing: People's Literature Publishing House, 2013.
4. Chen Zhongshi. *Bailuyuan* [M]. Wuhan: Changjiang Literature and Art Publishing House, 2017.
5. Gao Fang, Bi Feiyu. *Literary translation, cultural exchange and Chinese culture "going out"—Interview with writer Bi Feiyu*[J]. Chinese Translation, 2012, 33(3): pp. 49-53.
6. Mo Yan. *Red sorghum family* [M]. Beijing: People's Literature Publishing House, 2009.
7. Mo Yan. *Big breasts and fat buttocks* [M]. Beijing: Beijing October Literature and Art Publishing House, 2010.
8. Editor-in-chief Wu Keli. *A Review of Russian and Soviet Translation Theory Schools* [M]. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 2006.
9. Wu Tieping. *Fuzzy Linguistics* [M]. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 1999.
10. Yang Jiang. *Anthology of Yang Jiang* [M]. Beijing: People's Literature Publishing House, 2009.
11. Zeng Jiansong. *Research on the subjective meaning of Chinese numerals* [J]. Journal of Foreign Languages, 2016 (3): 54-58 pages.